

MISHEL MONTENNING “TAJRIBALAR” ASARI: INSON, TAJRIBA VA O‘ZLIKNI ANGLASH MUAMMOSI

Kurbonov Umidjon Egamberdiyevich,

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Iqtisodiyot va peagogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti v.b.

E-mail: umidjon.kurbonov.81@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Michel de Montaigne ning “Tajribalar” (“Essais”) asari filologik va falsafiy jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda muallifning esse janrini shakllantirishdagi o‘rni, individual uslubi hamda matnning lingvopoetik xususiyatlari yoritiladi. Asarda inson tabiati, subyektiv tajriba va o‘zlikni anglash muammosi markaziy konsept sifatida talqin etilib, muallifning introspektiv yondashuvi orqali shaxs va borliq o‘rtasidagi munosabat ochib beriladi. Shuningdek, “Tajribalar” asarida nutq strategiyalari, muallif diskursi va reflektiv tafakkur unsurlari tahlil qilinib, uning Yevropa esseistik an‘anasidagi o‘rni ilmiy asosda baholanadi. Tadqiqot natijalari Monten ijodining nafaqat falsafiy, balki filologik ahamiyatini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Mishel Monten, “Tajribalar”, esse janri, lingvopoetika, individual uslub, diskurs, subyektiv tajriba, o‘zlikni anglash, refleksiya, matn tahlili.

Аннотация. В данной статье представлен комплексный филологический и философский анализ произведения «Опыты» (Essais) Michel de Montaigne. В исследовании рассматриваются роль автора в формировании жанра эссе, его индивидуальный стиль, а также лингвопоэтические особенности текста. Понятия человеческой природы, субъективного опыта и самопознания интерпретируются как центральные концепты произведения, при этом через интроспективный подход автора раскрывается соотношение личности и бытия. Кроме того, анализируются речевые стратегии, авторский дискурс и элементы рефлексивного мышления в «Опытах», а также на научной основе определяется их место в европейской эссеистической традиции. Результаты исследования способствуют более глубокому осмыслению наследия Монтеня, выявляя не только его философскую, но и филологическую значимость.

Ключевые слова: Мишель де Монтень, «Опыты», жанр эссе, лингвопоэтика, индивидуальный стиль, дискурс, субъективный опыт, самопознание, рефлексия, анализ текста.

Abstract. This article provides a comprehensive philological and philosophical analysis of the work “Essais” (“Experiments/Essays”) by Michel de Montaigne. The study examines the author’s role in the formation of the essay genre, his individual style, and the linguopoetic features of the text. The concepts of human nature, subjective experience, and self-awareness are interpreted as central themes of the work, while the relationship between the individual and existence is revealed through Montaigne’s introspective approach. Furthermore, the research analyzes speech strategies, authorial discourse, and elements of reflective thinking in “Essais”, and evaluates its place within the European essayistic tradition on a scientific basis. The findings of the study contribute to a deeper understanding of Montaigne’s legacy, highlighting not only its philosophical significance but also its philological value.

Keywords: Michel de Montaigne, Essais, essay genre, linguopoetics, individual style, discourse, subjective experience, self-awareness, reflection, text analysis.

Kirish. Insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan faylasuflar asarlarida shaxsni tarbiyalash muammosi markaziy mavzulardan biri sifatida talqin etiladi. Yevropa Renessans davri tarixiy taraqqiyot jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bir bosqich o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlar bilan tavsiflanadi. “Gumanizm” tushunchasi ilk bor qadimgi Rim falsafiy an‘analarida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, uning tizimli rivojlanishi aynan Renessans davriga to‘g‘ri keladi. “Gumanizm (lotincha humanus -

insoniy, insonparvar) - odamlar o'rtasidagi munosabatlarda va ijtimoiy institutlar faoliyatida odamlarga g'amxo'rlik qilish, ularning hayotini yaxshilash, ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash va iste'dodlarini rivojlantirish istagiga asoslangan axloqiy tamoyilni ifodalaydi"[1,16].

Mazkur qarashga ko'ra, inson o'z fikrlari va amaliy faoliyatining subyektivi hamda ularning boshqaruvchisidir; ular bevosita shaxs irodasiga bo'ysunadi va, avvalo, inson ularning natijalari uchun mas'ul hisoblanadi. Agar individ o'z hayoti, faoliyati va kundalik ijtimoiy munosabatlarini aql, adolat hamda ezgulik tamoyillari asosida tashkil eta olsa, shuningdek, o'z rejalari va amaliy harakatlarini tabiat qonuniyatlariga, jumladan, o'zining ichki tabiiy mohiyatiga muvofiq holda yo'naltirsa, mazkur tamoyillar izchil ravishda ijtimoiy hayot tizimiga singib, jamoaviy mavjudlikning muhim normativ asosiga aylanadi. Shu bilan birga, Michel de Montaigne o'zining "Tajribalar" asarining ikkinchi kitobidagi XII bobini skeptitsizmni asoslash masalasiga bag'ishlab, uni butun asarning muhim va salmoqli qismi sifatida talqin etadi. Mazkur bobda ilgari surilgan falsafiy qarashlar aql va e'tiqod o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashda konseptual asos vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv doirasida skeptitsizm nafaqat bilishning chegaralarini aniqlash, balki inson tafakkurining imkoniyatlari va cheklanishlarini tahlil qilish orqali aql hamda imon o'rtasidagi muvozanatni izohlashga xizmat qiladi. Natijada, mazkur bobda bayon etilgan g'oyalar Montaigne epistemologik va diniy-falsafiy qarashlarini to'g'ri talqin etish hamda ularni tizimli ravishda qayta tiklash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda Michel de Montaigne "Tajribalar" asarini o'rganishda tarixiy-genetik va ijtimoiy-madaniy yondashuvlardan foydalanildi. Asarning mazmuni va tuzilishini tahlil qilishda tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi. Shuningdek, germevtik tahlil asosida matnning semantik qatlamlari ochib berildi. Tadqiqotda ilmiy xolislik va obyektivlikka amal qilingan holda analiz va sintez, abstraksiyalash hamda umumlashtirish metodlari qo'llanildi.

Jahonda Mishel Monten ilmiy merosini o'rganish va undan foydalanish bo'yicha ilmiy-falsafiy, badiiy-ma'rifiy sohada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, N.D.Arutyunova, L.Ye.Balashov, M.E.Gregory, M.E.P.Bonnet, M.K. Golovanivskaya, Madeleine Lazard, F.A.Kogan-Bernshteyn, R. H. Popkin kabi faylasuf olimlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin. Shuningdek, Mishel Montaigne hayot yo'li va ilmiy-falsafiy qarashlari hamda yetuk axloqiy shaxsni shakllantirishning falsafiy omillari borasida MDH mamlakatlari olimlaridan T.Maliyeva, N.Paxsaryan, A.Piskunov, P.S.Taranov, M.Slepneva va boshqalarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.

Natijalar. XVI asr fransuz adabiyotining milliy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayonidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Mazkur davrda Navarralik Margarita, Kleman Maro, Per de Ronsard, Yoaxim dyu Belle hamda Fransua Rable kabi ijodkorlar faoliyati

muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, F.Rable tomonidan yaratilgan “Gargantua va Pantagruel” asari, shuningdek, Mishel de Montening “Tajribalar” asari va ularda ilgari surilgan g‘oyalar nafaqat o‘ziga xosligi, balki jahon adabiy tafakkuri rivojidadagi tutgan o‘rni bilan ham alohida ilmiy qimmatga ega.

Mutafakkir Mishel de Monten Yevropa Uyg‘onish davrining yirik mutafakkiri, taniqli jamoat va siyosiy arbobi sifatida o‘z davrining adabiy-falsafiy hamda lingvomadaniy tafakkuri rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. U Uyg‘onish davrining so‘nggi gumanisti va yangi davr axloqiy tafakkurining dastlabki namoyandalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Mutafakkir qomusiy olim sifatida nazariy va kognitiv muammolarni kompleks tarzda tahlil etgan holda, antik davrda shakllangan ilmiy-falsafiy an‘analarni davom ettirgan va ularni yangi davr tafakkuri bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. “Mishel Monten insonning o‘ziga xos yashash nazariyasini yaratdi, u o‘zining “Tajribalar” asarida mujassam bo‘lgan va uning idrokini aks ettirdi, shuningdek, borliqning barcha ekzistensial muammolarining sabablarini ochib berdi. Mutafakkir insonning barqaror va bir xil g‘oyasini tuzishning butun qiyinchiligini angladi, shu bilan epikureizm va transsendental skeptisizm kabi tamoyillarni qo‘llash orqali borliqning avtonom tabiatini asoslab berdi”[2,416].

1588-yili Parijda “Tajribalar” asarining uch kitobdan iborat to‘liq nashri chop etiladi. E‘tiborlisi, mutafakkir umrining so‘nggi kunlarigacha mazkur asar ustida ishlaydi, kitobning dastlabki 2 jildi 1580-yilda Bordo shahrida nashr etildi. Bu vaqt oralig‘ida Montening o‘zi ham kutilmagan notinch voqealar girdobiga tushib qoladi. Bordo shahrini nazorat qilish ham shaharning quyi tabaqasidan bo‘lgan isyonkor guruhlar qo‘liga o‘tib qoladi, qirol Genrix III va uning atrofidagi mulozimlari najot istab Parijdan bosh olib ketadi. Monten o‘ziga sodiq qolgan holda ota-bobolarining qal‘asiga qaytib, “Tajribalar” asarini “Yuqori lavozimning uyatchanligi” nomli bob bilan to‘ldiradi va unda mutafakkir quyidagilarni yozadi: “Hokimiyat va itoatkorlik men uchun jirkanchdir. Baxtsiz hodisalar va qiyinchiliklarga duchor bo‘lmagan inson shijoat va quvonchni jasoratli mukofot sifatida talab qila olmaydi. Hamma narsa sizning oldingizga egilib turadigan kuchga ega bo‘lishi juda achinarli taqdirdir” [3, 112-113], - degan xulosaga keladi.

Michel de Montaigne umrining so‘nggi davrigacha “Tajribalar” (Essais) asari ustida izchil ishlagan bo‘lib, uning vafotidan uch yil o‘tib, 1595-yilda asarning to‘ldirilgan va mukammallashtirilgan nashri e‘lon qilingan. Mazkur asar janriy xususiyatlariga ko‘ra o‘z davrining rasmiy-ilmiy an‘analariga muayyan darajada muqobil hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, lotin tili ilm-fan va akademik muloqotning ustuvor vositasi bo‘lgan tarixiy sharoitda asarning fransuz tilida yaratilgani muallifning til siyosati va adabiy-estetik qarashlaridagi yangilikni ifodalaydi. Shu bilan birga, Montening lotin tilini mukammal egallaganligi hamda zamonasining falsafa va ilohiyot sohasidagi akademik bilimdonlaridan ustun intellektual salohiyatga ega bo‘lganini alohida ta‘kidlash lozim.

“Tajribalar” asari an’anaviy adabiy-falsafiy risola, avtobiografik bayon yoki kundalik janriga to‘liq mos kelmaydi. Aksincha, unda muallif muammolarni o‘ziga xos esseistik shaklda qo‘yib, borliq, hayot va inson taqdiri masalalariga doir subyektiv-refleksiv mulohazalarini ifodalaydi. Asarda individual tajriba va kuzatuvlar umumlantirilib, turli tarixiy dalillar, ijtimoiy-madaniy sharoitlar hamda turli yosh va ijtimoiy qatlam vakillarining turmush tarzi, urf-odatlar va madaniy darajasi bilan bog‘liq masalalar keng filologik va konseptual tahlil doirasida yoritiladi. Natijada, Montanning ushbu asari esse janrining shakllanishi va rivojida muhim bosqich sifatida baholanadi hamda individual uslub va muallif diskursining yorqin namunasini tashkil etadi.

Michel de Montaigne ning “Tajribalar” (Essais) asarida jamiyatda qaror topgan qarashlar va urf-odatlarining inson ongiga tizimli ravishda ta’sir ko‘rsatishi, uni muayyan me’yoriy-cheklovlar doirasida shakllantirishi hamda individual tafakkur erkinligini chegaralashi masalasi izchil ravishda yoritiladi. Muallif ushbu jarayonni inson onging ijtimoiy-diskursiv konstruksiyalanishi sifatida talqin etib, an’anaviy institutlar — din, qonun, urf-odat, nazariya va ta’limotlar orqali shaxs ustidan nazorat mexanizmlarining amal qilishini tanqidiy ruhda ifodalaydi. Montanning ta’kidlashicha, “har kim jamiyatdagi o‘z vazifalaridan xabardor bo‘lishi va ulardan yaxshilikka xizmat qilish maqsadida foydalanishga intilishi kerak. Monten shaxsning jamiyat va boshqalar oldidagi axloqiy majburiyatlari haqida muhokama qiladi. Uning ta’kidlashicha, axloqiy me’yorlar nafaqat shaxsiy manfaat uchun, balki umumiy manfaat uchun ham xizmat qilishi kerak”[4,21]. Bu esa uning erkin tafakkurini cheklovchi omillar majmuasini tashkil etadi.

Mazkur kontekstda asarda fikr erkinligi, individual ong mustaqilligi va aql huquqlarini himoya qilish g‘oyalari markaziy konseptual yo‘nalish sifatida ilgari suriladi. Montanning esseistik diskursida bu masalalar insonning ichki erkinligini tiklash va uni ijtimoiy stereotiplardan xalos etish zarurati bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar tomonidan Montenni an’anaviy qarashlar va urf-odatlarga ko‘r-ko‘rona ergashuvchi hamda mavjud qadriyatlarga mutlaq sodiq mutafakkir sifatida baholashga urinishlar kuzatiladi. Biroq bunday yondashuvlar ilmiy asosga ega emas, chunki ular Monten qarashlarining ichki murakkabligi va tanqidiy-refleksiv xarakterini yetarlicha inobatga olmaydi. Aksincha, uning asarlarida an’anaviy me’yorlar tanqidiy qayta ko‘rib chiqilib, inson tafakkurining mustaqilligi va erkinligi ustuvor qadriyat sifatida ilgari suriladi.

Muhokama. Monten insonning erkin va mushtarak rivojlanishini, tabiat unga bergan mayllar va fe’l-atvorini himoya qilib chiqadi. U bu uyg‘unlikni parchalashi, o‘ziga xos gormonal tartibni buzishi mumkin bo‘lgan har qanday omillardan o‘ta ehtiyotkoridir. Agar har kim o‘zini idora qilishi va harakatlarida mutanosiblik tuyg‘usini boshqara olsa, olamda ong va tartib oshib ketmasligiga amin bo‘ladi. Qadr-qimmat va sog‘liq bilan qurilgan inson hayoti – bu jamiyat farovonligi va barqarorligining yagona kafolati deb ta’kidlaydi: “Biz aqlli kitoblar yozmasligimiz kerak, lekin o‘zimizni kundalik hayotda

oqilona tutishimiz, janglarda g'alaba qozonmasligimiz va yerlarni zabt etmasligimiz kerak, balki oddiy hayot sharoitida tartibni tiklashimiz va tinchlikni o'rnatishimiz kerak. Bizning eng yaxshi ijodimiz – bu aqlga muvofiq yashashdir. Qolganlarning hammasi, ya'ni hukmronlik qilish, boylik to'plash, qurish - bularning barchasi qo'shimchalar vaqtinchalik o'zgarishlardir" [3, 409-b.].

Zamonaviy g'oyalar va mafkura ma'nosida Montanning bu qarashlarini ikki xil qabul qilish mumkin: hayotga bo'lgan ishtiyoqni targ'ib etish va o'ziga xos xudbinga aylanish: – imkoni boricha sizga ato etilgan quvonchlardan va zavqlardan rohatlanib yashang, sizdan keyin keladigan hodisalarga e'tibor bermang. Unda bular siz uchun ahamiyatsiz bo'lib ko'rinadi. Lekin Monten zamonida hukmron bo'lgan barcha qarashlar boshqacha ko'rinishda ifodalangan edi.

Shuningdek, mutafakkir ijtimoiy hayotda insonning faoliyati va qaror qabul qilish jarayonlari ratsional tafakkurga asoslanishi lozimligini ilgari suradi. U subyektiv tajriba va refleksiyaning bilishning muhim manbai sifatida e'tirof etib, inson ongining erkinligi va mustaqilligini yuqori baholaydi. Shu jihatdan, Monten insonni nafaqat ijtimoiy mavjudot, balki o'z tajribasi orqali borliqni anglaydigan va baholaydigan subyekt sifatida talqin qiladi. "Monten uchun farzand tarbiyasi bu o'qitish davomida tajribalarini tahlil qilish, o'qish qoidalarini haqida, bu yuqorida ham qayd etildi uning bola tarbiyasida olib boriladigan ishlar hayratlanarli darajada bugungungi kunda ham zamon talabidir. Monten fikrlari asosida o'qitish pedagogikasi, bolaning erki va irodasiga hurmat asosida shakllanishi lozimligi, madaniy amaliyotni o'rganish erta integratsiyaga erishish uchun muntazam ravishda mashg'ulotlar o'tkazilishi kerakligini ilgari suradi. O'qishga ishtiyoqmand bo'lsa-da, "Tajribalar" deb nomlanuvchi esselar muallifi kitob intellektual muvozanat uchun yetarli emasligini biladi, chunki u tajriba kitobda emas amaliyotda uchrashuvlar sayohat, munozara, do'stlik orqali hayotni bevosita kuzatish orqali taqdim etiladi deya fikrlarini berib o'tadi"[5,219]

Xulosa. Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, Michel de Montaigne inson hayot faoliyatida muayyan axloqiy-me'yoriy tamoyillarga izchil amal qilish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Uning qarashlarida shaxsning ichki dunyosi, ma'naviy kamoloti va o'zini anglash jarayoni markaziy o'rin egallab, insonning tabiat bilan uyg'unlikda yashashi muhim ontologik va aksiologik mezon sifatida talqin etiladi. Mazkur g'oyalar mutafakkir tomonidan o'zining esseistik merosi, xususan "Tajribalar" asari doirasida izchil ravishda yoritilib, ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga intiladi. Natijada, Monten ta'limoti insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti, o'zlikni anglash va ratsional fikrlash madaniyatini shakllantirishda muhim nazariy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Петрихин, А. В. (2014). Гуманизм как социокультурный процесс противостояния ценностно-мировоззренческих форм гуманности (Doctoral dissertation, Краснодарский университет МВД РФ). – С.16.
2. Qurbonov, U. (2023). *MISHEL MONTEN FALSAFASIDA GUMANISTIK ANTROPOTSENTRIZM MASALALARI*. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 193-193.
3. М. Монтень. *Опыты*. Подготовили А.С. Бобович, Ф.А. Коган-Бернштейн, Н.Я. Рыкова и А.А. Смирнов. Т. III. - Москва: Наука, 1979. - С.326-327.
4. Muhamedov A.A. “Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining komparativistikasi”: Falsafa fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Andijon, 2024. –B.21.
5. Absalamova, G. (2021). Fransuz mutafakkiri michel de monten farzand tarbiyasi xususida. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(9).–В. 219.
6. Umidzhon, K. (2019). European renaissance and Michelle Montaigne: the way of man's understanding himself. Вісник Маріупольського державного університету. Сер.: Філософія, культурологія, соціологія, (18), 50-57.
7. Haqqulov, N. Q. (2019). Perfect generation-personality of private education and humanity facilities. *Мировая наука*, (2 (23)), 62-63.
8. Усанов, Р. Т., & Хаккулов, Н. К. (2024). ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ «НЕНАСИЛИЕ». *Экономика и социум*, (6-2 (121)), 1406-1413.

